




ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT'

MS
2021



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

MAXSUS SON (2021-yil, IYUN)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, MAXSUS SON

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika va psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiynashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

ABDULLA AVLONIYNING MA’RIFIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI

Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati borasida fikr yuritilgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari turli xil g’oyalar o’rtasidagi kurashlar bilan o’tadi. Dastlabki jadidchilik oqimining ko’zga ko’ringan namoyondalaridan hisoblangan Abdulla Avloniy zamon zayliga qarab ish ko’rib, oktyabr inqilobi tarafdozlari tomoniga o’tib ketadi. Shunday bo’lsada, u o’zbek pedagogikasida taraqqiyotida muhim o’rin egallaydi. U o’zbek xalqning san’ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo’lgan qilgan adib, jamoat arbobi va iste’dodli pedagogdir.

Kalit so‘zlar: jadid, maktab, ma’rifat, jurnal, teatr, darslik, “Turkiy Guliston yoxud axloq”.

В статье рассматривается педагогическая деятельность Абдуллы Авлони. В частности, педагогические взгляды Абдуллы Авлони переплетаются с борьбой разных идей. Абдулла Авлони, видный деятель раннего движения джадидов, перешел к сторонникам Октябрьской революции. Тем не менее, он играет важную роль в развитии узбекской педагогики. Он писатель, общественный деятель и талантливый педагог, внесший большой вклад в развитие искусства и литературы узбекского народа, национальной культуры и народного образования.

Ключевые слова: джадид, школа, просвещение, журнал, театр, учебник, “Турецкий гюлистан или нравственность”.

The article examines the pedagogical activity of Abdullah Avloni. In particular, the pedagogical views of Abdullah Avloni are intertwined with the struggle of different ideas. Abdullah Avloni, a prominent figure in the early Jadid movement, went over to the supporters of the October Revolution. Nevertheless, he plays an important role in the development of Uzbek pedagogy. He is a writer, public figure and talented teacher who made a great contribution to the development of art and literature of the Uzbek people, national culture and public education.

Key words: jadid, school, education, magazine, theater, textbook, “Turkish gulistan or morality”.

Kirish. Ta’lim mazmunini milliy me’ros va qadriyatlarimiz bilan boyitish, yosh avlodni milliy g’urur va iftixor tuyg’usi bilan qurollantirish, olim, faylasuf, mutafakkir hamda ma’rifatparvarlarimizning ilmiy me’rosini kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir, bu borada davlatimiz rahbari ham “Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo’llanmasi sifatida bugungi kunda ham o’zining qadri va ahamiyatini yo’qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebafo asarlardan samarali foydalanishimiz zarur” [7].

Ayniqsa, ma’rifatparvar shoir, davlat arbobi, pedagog Abdulla Avloniy ilmiy-me’rosini o’rganish va uning pedagogik faoliyatidan unumli foydalanish bugungi kunda o’zining yuksak salohiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy hayoti davomida xalq farovonligi, yoshlarning ilmli bo’lishi, dunyoga tanilishi kabi salmoqli faoliyat bilan mashg’ul bo’ldi. Buning uchun maktablar, yangi o’qitish usullari va darsliklar yarattdi, qator gazeta va jurnallarda chop etib ilg’or fikrlarini xalqqa yetkazishga harakat qildi, teatr truppalarida ijro va asarlari bilan qatnashib ma’rifatparvarlik g’oyalarini keng ommaga ma’lum qildi.

Asosiy qism. Abdulla Avloniy nashr etgan gazetalar ilg’or fikrlar targ’ibotchisi bo’lgani uchun ham uning faoliyati chorizm hukumati tomonidan tez-tez taqiqlanar edi. Shundan so’ng u ilg’or g’oyalarni ma’rifat o’chog’i – maktab orqali xalqqa tarqatishga qaror qiladi va 1903-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usulda maktab ochadi. U o’zi ochgan maktabda kambag’allarning farzandlarini, yetim-yesirlarni o’qitdi. Avloniyning ilk o’quvchilaridan biri Yusuf Tohiriy mazkur maktab haqidagi xotiralarida shunday yozgan edi: “Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo’l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi usuldagagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug’i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: “Miroboddagi maktab 6 oyda o’qish-yozishni o’rgatarmish, jo’g’rofiya, hisob, tabiatni o’rganish degan darslar o’rgatilarmish”, – degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko’rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat, bir kuni uch-to’rttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastakkina, nim qorong’u bo’lib, masjid yo’lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug’lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg’ir ham tushib turardi. Xonada o’quvchilar ko’p, lekin bu hol o’quvchilarning bilim olishiga to’sqinlik qilmas edi. Hayotimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotma, cho’qqi soqlar bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan

muallim – Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay, ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bizning bolalarning oldi bir necha yildan beri maktabga qatnab yurgan bo'lsa ham, mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo'lishlari bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizni eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi” [5].

Abdulla Avloniying Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan yangi usuldagagi maktabning dovrug'i, Yusuf Tohiriy xotiranomasida yozganidek, butun Toshkentga tarqaldi. Lekin u ko'p o'tmay yopildi.

Bu haqida Abdulla Avloniy shunday yozgan edi: “Maktabimda yer, odamlar, tog‘-toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o'tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding deb maktabimni yopdilar” [1]. Biroq Abdulla Avloniy o'z g'oyasi va e'tiqodi yo'lida bu muvaffaqiyatsizlikdan va ilm-ma'rifatga qarshi bo'lgan jaholatparastlardan, chor hukumatining millatchilik siyosati oldinga surgan har qanday to'siqlardan qo'rwmadi. Shundan so'ng u 1909-yilda kambag‘al va yetim-yesirlarga yordam berguvchi “Jamiyatni xayriya” jamg‘armasini tashkil etib unga olti oy raislik qiladi va bu jamiyatga toshkentlik ma'rifatparvarlarlardan 25 kishini birlashtiradi.

Shu yili Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfdan iborat maktab ochdi. “Maktabda bolalarga jo‘g‘rofiya, tarix, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlar bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan bilim beradi” [1]. Yetim-yesir bolalarni kiyim-bosh, qalam-dafttar bilan ta'minlash uchun bo'sh vaqtlarida duradgorlik va suvoqchilik qiladi, pechka tuzatuvchi usta bo'lib pul topadi.

Abdulla Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig'i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o'stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo'llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning “Muallimi avval” (1911), “Muallimi soniy” (1912), “Turkiy Guliston yoxud axloq” (1913), 6 qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” (1909-1917), “Maktab guliston” (1915) va boshqa asarlari o'zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o'rin egallaydi.

Avloniy bolalarning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradi va shu sababdan o'z maktabida “axloq” darsini o'ta boshlaydi. Avloniy Turkiston maktablarida axloq –odob to‘g‘risidagi bilimlar berilishi lozimligini quyidagicha tushuntiradi: «... Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilishi mukammal “axloq” kitobining yo'qligi ofrodi millatining shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi o'zim muallimlar jumlasidan bo'lganligimdan manga ham ochiq ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa-da o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko'tarmakni munosib ko'rdim”.

Pedagog maktablarda “axloq” darslarini tashkil qilishni o'z zimmasiga olgan holda, 1913-yilda “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli ta'lim–tarbiya masalalarini chuqur bayon qiluvchi asar yaratadi. Uning bu asarida xulqiga qarab kishilarning ikkiga bo'linishlari (“yaxshi xulq” va “yomon xulq”), tarbiya turlari, tarbiyani to‘g‘ri tashkil etish va boshqa qimmatbaho fikrlar berilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy tarbiya sarlavhasi ostida tarbiya turlariga alohida to‘xtalib, tarbiyani to‘rt turga bo'ladi: tarbiyaning zamoni; badan tarbiyasi; fikr tarbiyasi (aqliy tarbiya); axloq tarbiyasi.

Muhokama va natijalar. Abdulla Avloniy tomonidan tarbiyaning yuqoridaagi tartibda aniqlanishi uni bolalarga xos xususiyatlardan chuqur xabardor ekanligidan darak beradi. U “Tarbiyaning zamoni” mavzusidagi bolalarga tug‘ilgan kunidan boshlab tarbiya berish zarurligini hamda tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilish uchun tarbiyachi, ota—ona, muallimlarning o'zлari ham tarbiyalangan kishilar bo'lishi lozimligini qayd qilib o'tadi. “Badan tarbiyasi” mavzusida insonning salomat bo'lishi uchun hamisha badan tarbiyasi zarurligini ko'rsatib, “... o'qimoq, o'qitmoq va o'rganmoq uchun insonga kuchlik kasalsiz jasad lozimdur”, – deydi. Qolgan ikki – aqliy va axloqiy tarbiya mavzularida esa Avloniy o'qitishda ta'lim-tarbiyaning birligiga, tarbiyada esa o'qituvchilarning ibrat-namunasiga ahamiyat berish shartligini ta'kidlab o'tadi.

Abdulla Avloniy ham o'sha davriy faoliyat ko'rsatgan boshqa ziyyolilar qatori tashkil qilgan maktablari uchun darsliklar ham yozadi. Uning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” kabi darsliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari Avloniy o'z zamondoshlari orasida pedagogika fanini birinchi bo'lib tilga olgan va o'zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida pedagogika “Pedagogiya” - bola tarbiyasining fani demakdir, deb to‘g‘ri ta'rif bera olgan buyuk pedagog hamdir. Shu jihatdan ham uni o'zbek pedagogikasi taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'targan olimlar qatoriga kiritsa bo'ladi.

Yangi usuldagagi maktablar tabiiy sharoiti, jihozlanishi, katta—kichikligi bilan bir—biridan tubdan farq qilsa—da, ularda, asosan, bir xildagi fanlar o'qitilar, bu maktablarning barchasidagi o'quv jarayoni Ismoilbek Gaspirali targ‘ib etgan ilg‘or demokratik g'oyalar va musulmonchilikning diniy asoslarini bирgalikda o'rgatilishi asosida amalga oshirilar edi. Ushbu maktablarning o'qituvchilari oldiga qo'yiladigan vazifa

nafaqat o‘quvchilarga bilim berish bo‘lmay, balki ularda hayotiy fikrlash, qiziqish uyg‘otish, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o‘quvchilarni milliylik ruhida tarbilash ham edi.

Jadidlar tuzgan maktablarda aholiga ilmiy-ommabop bilim berish muhim pedagogik vazifa hisoblanar edi. Shu bilan birga bu maktablardagi bilimlar sodda va tushunarli holda ifoda etilardi. Bu maktablarda diniy bilimlar bilan birga hayotda eng zarur bo‘ladigan ilmiy bilimlar, ya’ni ona tili, riyoziyot, jug‘rofiya fani asosan o‘lkashunoslik materiallari asosida o‘rganilardi. Bolalar intizomiga jadid maktablarida alohida e’tibor berilar, bolalarga ta’lim-tarbiya berishda dinning tarbiyaviy ahamiyatidan samarali foydalanilar edi. Katta moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan iqtidorli bolalar tahsil olish uchun chet ellarga yuborildi.

Jadidlarning yana bir muhim fazilati shundaki, ularning ko‘pchiligi ta’lim mazmuniga yangicha yondashgan holda o‘zbek tilida darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishgan va ushbu asarlari orqali o‘z uylarida maktablar ochib, bolalarga ta’lim-tarbiya berishgan.

Abdulla Avloniy “Tarjimai holi”da yozadi: “1900-yilda uylanib, oila boshlig‘i bo‘lib qoldim. Shu yilda otam o‘lib, o‘gay onam bilan bir ukam meni qaramog‘imda menga boqim bo‘lib qoldi. Bu vaqtida butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqa to‘g‘ri kelganligidan quvvai muhofazam o‘rtta darajada bo‘lg‘on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg‘a to‘g‘ri keldi. Shu choqlarda o‘sim mehnat ichida yashag‘onlig‘imdan boylarga va mullalarga qarshi she’rlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o‘qishga tutindim. Shul zamonlarda Rusyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot — gazeta va jurnallar bilan tanishib, o‘qib, ma‘lumotimni orttira bordim. “Tarjimon” gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim. Shul zamonda erli xalqlar orasida esklilik-yangilik (“jadid-qadim”) janjali boshlandi. Gazet o‘quvchilari mullalarni “jadidchi” nomi bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904-yildan jadidchilar to‘dasida ishlay boshladim. “Jadid maktabi” ochib, o‘qituvchilik ham qildim... Mulla va boylarga qarashli eski turmush bilan qat‘iy sur’atda kurasha boshladuk. O‘z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi. 1905-yilgacha shu holda sinfiy kurashda davom qildik...” [4].

Abdulla Avloniy “Shuhrat”, “Osiyo”, “Turon” gazetalarini nashr etib, uning sahifalarida eski mifik va madrasalardagi o‘quv-o‘qitish uslublarini isloh qilishga undovchi maqolalarga keng o‘rin berib bordi. U maqolalaridan birida shunday deb yozadi: “Biz muslimonlar ma‘rifat va madaniyat jihatidan o‘ruslardan va hatto armanlardan juda orqadamiz...”

Bizning bolalarimizning yoshroqlari ko‘chalarda turli foydasiz o‘yinlar bilan mashg‘ullar, kattaroqlari boylar eshigida xizmatkordirlar. Maktab, madrasalarimizda ilm degan aziz narsani yolg‘iz ismigina qolgan, o‘qiydirg‘on bolalarimizning 15-20 yillab umri azizlari madrasa yotoqxonalarida barbod bo‘lib, ba’zilari o‘z ismlarini ham to‘g‘ri o‘rganmay chiqmoqdalar” [6].

Abdulla Avloniyning “Muallimi avval” (“Birinchi muallim”) alifbo darsligi Mulla Abdulvahob Ibodiyning “Tashilul alifbo” haqida, M.Faxriddinovning “Rahbari avval” darslik-alifbolari kabi usuli maddiyada yaratilgan. Usuli maddiya hijo usulining ancha soddalashtirilgan turi bo‘lib, harfiy-bo‘g‘in uslubi (metodi) deb ham yuritiladi. Abdulla Avloniy mazkur alifboni yaratishda usuli savtiyada yaratilgan ilk darsliklar (Saidrasul Saidaziziyning “Ustozi avval”, 1903-yil; Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lining “Adibi avval”(1907)ini chuqur o‘rgandi, o‘zining amaliy tarbiyachilik faoliyatidan foydalandi. Muallif alifboni yaratishda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e’tibor berdi, o‘qitishning eng oson yo‘llarini qo‘llashga harakat qildi. Bu haqda Avloniy yozadi: “Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning “Muallimi avval” (“Birinchi muallim”)imizdan ham olib, tajriba qilib, o‘qutub ko‘rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta’mi-mazasi bordur, bu ta’m esa tajriba sohiblarini kashfu ma’lum o‘lur... Oson usul ila tartib edilmish”. Darslikning birinchi qismida harfning yozilish shakllari tushuntiriladi, ikkinchi qismida didaktik xarakterdagи kichik-kichik matnlar beriladi [2].

Muallifning “Muallimi soniy” (2-sinf uchun) kitobi terma kitobga o‘xhash bo‘lib, “Alifboden so‘ng o‘qutmoq uchun” yozilgan, bolalar ruhiga, bilim savyasiga mos keladigan sodda, didaktik axloqiy-ma’rifiy hikoyalari, she’rlar bilan ziynatlangan darslikdir. Kitobni varaqlar ekanmiz, muallifning “Sahiylik” va “Baxillik”, “Arslon ila ayiq”, “Nafsi buzuq hayitda o‘lar”, “Aqli qarg‘a”, “Aqli bola”, “Qalampir ila cho‘l yalpizi”, “Ovoz”, “Xrus (xo‘roz)ila bo‘ri”, “Aqli bog‘bon”, “Soqi ila onasi”, “Bolari ila Pashsha” kabi hikoya va masallarida nafs balosi va ochko‘zlik, yolg‘onchilik, baxillik, hasadgo‘ylik, janjalkashlik, takabburlik, manmanlik, yalqovlik, tekinxo‘rlik, nodonlik va jaholat, soxta do‘stlik, nomardlik qattiq qoralanadi, rostgo‘ylik, saxiylik, chin do‘stlik, xushfe’lllik, xushmuomalalik, yaxshilik qilish, aql va donishmandlik, mehnatsevarlik, mardlik kabi fazilatlar esa sharaflanadi. Bunday ma‘rifiy, ijtimoiy-axloqiy mazmundagi asarlar bilan tanishtirish shubhasiz, bolalarni erksevarlik, haqiqatgo‘ylik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, Avloniyning yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida mo‘ljallangan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining ahamiyati katta bo‘ldi. Darslikda yoshlarni “yaxshiliqg‘a chaqiruvchi, yomonlikdan

qaytarguvchi bir ilm” axloq va xulq haqida keng fikr yuritiladi. U ta’lim bilan tarbiyani uzviy ravishda olib qaraydi: “*Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg‘on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur*” [1], deb to‘g‘ri tushunadi va to‘g‘ri talqin qiladi: “*Tarbiya, “pedago‘giya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtindan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o’rgatmak, yomon xulqlardan asrab o’sdurmakdur*” [2].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulla Avloniyning Vatan, uning taqdiri, o‘tmishi, istiqboli haqidagi qarashlari, uning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy o‘ylari bilan chambarchas bog‘liqligi jihatidan ham diqqatga sazovordir.

Ma’rifatparvarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari beqiyos, jumladan, milliy ruhdagi “Usuli jadid” maktablarining taraqqiy etishiga darsliklar hamda ulardan foydalanish usullari, matbuotchilik, teatr truppalarida olib borilgan ma’rifiy ishlari pedagogika fani taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi pedagogik qarashlari shu bilan xarakterliki, u ajdodlarimizning bu boradagi qimmatli fikrlarini ilg‘or, zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashtirdi. Ayniqsa, “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari hanuzgacha ta’lim-tarbiya masalalarining ijtimoiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Бобохонов А., Махсумов М. Абдулла Авлонийнинг педагогик фаолияти ва таълим-тарбия тўғрисидаги фикрлари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1966. 43-бет.
2. Долимов У. А. Авлоний ва мактаб. “Ўзбек тили ва адабиети”, 1990 йил. 4-сон.
3. Жадидчилик. “Ёшлик” журнали, 1990 йил. 7- сон.
4. Қосимов Б. Сапёрлар кўчасидаги уй. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1988 йил 29 июль.
5. Тоҳирий Ю. Доно мураббий. “Тошкент оқшоми” газетаси, 1966 йил, 10 ноябрь.
6. “Осиё” газетаси, 1907 йил. 2- сон.
7. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

МУНДАРИЖА

Бахтиёр АДИЗОВ. Креатив фикрлашга йўналтирилган таълим технологиялари	5
Ширинбой ОЛИМОВ. Таълимни технологиялаштиришнинг асосий элементи	9
Болта ХОДЖАЕВ. Олий ўқув юртларида муаммоли таълим технологиясини қўллашнинг айрим жиҳатлари.....	15
Nasiba AZIMOVA, Zarina NASIMOVA. O‘qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.....	20
Акбар ГУЛБОЕВ. Педагоглар фаолиятини ташхис қилишнинг назарий ва методологик асослари....	26
Qobiljon ABDULLAYEV, Nargiza BOBOMURODOVA. Qadimgi mesopatamiyadagi madaniy-ma’rifiy taraqqiyot sarchashmalari	30
Гулия ҲАБИБОВА, Умида БАҲРИЕВА. Талабаларнинг мустақил иши - таълимни ташкил этишининг етакчи шакли сифатида.....	33
Лола ЭЛИБОЕВА. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг педагогик маҳоратини ошириша интерфаол таълим методларидан фойдаланиш	37
O‘lmas QURBONOVA. O‘zbekiston va Finlyandiya ta’lim tizimi: muammo va istiqbollar.....	42
Гулчехра ИЗБУЛЛАЕВА. Муслиҳиддин Саъдий Шерозийнинг “Гулистон” ва “Бўстон” асари юксак дидактик манба сифатида	46
Gulnoz TOSHOVA. Pedagogik faoliyat va uni takomillashtirishda pedagog mahorati	52
Manzura OCHILOVA. Sharq mutaffakkirlari merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash.....	57
Dildora TOSHEVA. Boshlang‘ich sinflarda “Atrofimizdagi olam” fanidan “Yashil dorixona” mavzusini o‘qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	61
Bobomurod JO‘RAYEV. Somoniylar davrida ta’lim tizimi va mazmuni.....	65
Dilfuza RAKHMONOVA. Equirements for preschool education teacher.....	70
Matluba XOJIYEVA. TA’LIM JARAYONIDA AKSIOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	74
Нигина ИСМАТОВА. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланиш усул ва воситалари.....	79
Олимжон АХМАДОВ. Бухорода янги усул мактаблари фаолияти (XIX аср охири XX аср I чораги) .	83
Nilufar RAXIMOVA. Tarbiya va shaxs kamoloti	89
Gulshan SAIDNAZAROVA. Al-Buxoriyning hadislarida tarbiya masalasi	94
Нигора САЙФУЛЛАЕВА. Методика оценки развития экономического мышления у студентов вуза	98
Маърифат УМУРОВА. Мактабгача ёшдаги болаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мусиқанинг ўрни.....	103
Oybek ORTIQOV. O‘quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash mazmuni	109
Феруза РАМАЗОНОВА. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида	113
Olimjon AHMADOV, Dilnoza ELOVA. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar).....	116
Madina BAXRAMOVA. Modulli ta’limni joriy etishning muammolari va yechimlari	120
Болта ХОДЖАЕВ, Ситора ШАРИПОВА. Талабаларнинг ўқув– билув фаолиятини активлаштиришда муаммоли таълим имкониятларидан фойдаланиш	124
Shaxlo XALILOVA. Jahon pedagogikasida pedagogik muloqotning zamонавиј uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublari bilan integratsiyasi	129
Zuxriddin SHERNAZAROV. Abdulla Avloniyning ma’rifiy-pedagogik faoliyati	134
Феруза ЖУМАЕВА. Ўзбек оиласарида ёшларнинг оиласијий тарбия ҳақидаги тасаввурларини шакллантириш	138